

---

## Dehqon bozorida arzonlashtirilgan oziq-ovqatlar yarmarkasi faoliyat olib bormoqda

Har yili Yangi yil bayrami oldidan bozorlarda arzonlashtirilgan oziq-ovqatlar yarmarkalari tashkil etiladi. Bu yil ham tumanimiz aholisi uchun qulaylik yaratish maqsadida Qo'shtepa tumanidagi "Qumtepa" mahallasi hududida joylashgan "Dehqon bozori" MCHJda arzonlashtirilgan oziq-ovqatlar yarmarkasi faoliyat olib bormoqda.

Yarmarkada meva-sabzavotlar, un, yog', go'sht, tuxum, guruch va bayram dasturxoniga tortiladigan barcha mahsulotlar bozor narxidan arzon narxlarda sotilmoqda.

Yarmarkaga kelib, qulay narxlarda yangi yil bayrami dasturxonini uchun turli oziq-ovqat mahsulotlarini harid qilishingiz mumkin.

Bugun, tuman hokimi A.Abdullayev va tuman IIB boshlig'i I.Xamroqulovlar "Dehqon bozori" MCHJda bo'lib, yarmarka faoliyati hamda oziq-ovqat mahsulotlari do'konlaridagi narx-navo bilan tanishdilar.

2024-12-26 13:23:34